TIL BOR EKAN, MILLAT BARHAYOT

Farg ‘ona shahar “Yuksalish maktabi”
10-Abdulhamid Cho’lpon sinfi oquvchisi
Bibisora Qurbonaliyeva Ravshanboy qizi
bibisoraqurbonaliyeva@gmail.com
Ilmiy rahbar
Navro‘zoy Normatova

Kirish

Har bir davlatning o‘z ona tili bor. Xuddi shu kabi, bizning ham o‘z o‘zbek tilimiz bor. Til — millat ko‘zgusi. Tilni asrab-avaylashimiz va qadrlashimiz kerak.

O‘zbek tilining boyligi va ahamiyati

O‘zbek tilida dunyo bo‘ylab 50 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. O‘zbek tili — boy va ma’nodor til, ya’ni bir fikrni turlicha, chiroyli iboralar bilan ifodalashimiz mumkin. U maqol va matallarga boy, ya’ni xalqimizning donoligi va hayotiy tajribasi unda mujassam. Eng muhimi, tilimiz buyuk adabiyotga ega. Alisher Navoiy kabi ijodkorlar adabiy tilimizga katta hissa qo‘shganlar. Masalan, ular yangi so‘z va iboralarni mahorat bilan qo‘llab, o‘zbek adabiy tilining rivojlanishiga yordam berganlar hamda tilimizda yuksak badiiy asarlar yaratish mumkinligini isbotlaganlar. O‘zbek tili orqali buyuk avlodlarimizning ilmiy ishlari va meroslari bizgacha yetib kelgan va bundan keyin ham yosh avlodga yetib boradi. Bu yosh avlodning kelajagiga katta hissa qo‘shadi. O‘zbek tili xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odatlari va milliy o‘zligini aks ettirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek tilining davlat tili maqomi

O‘zbekiston Respublikasida 1989-yil 21-oktabrda «Davlat tili haqida»gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: «Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak».

O‘zbek tilini asrash va qadrlash

Lekin hali-hanuz til bilan bog‘liq muammolarimiz yetarli. Ayrim joylarda tilimizga va yozuvimizga sovuqqonlik bilan qarash hollari uchrab turibdi. Bugungi kunda ayrim insonlar o‘z ona tilini qadrlamaydi. Ba’zilar o‘zbek tilida gapirishdan uyalib, chet tilida gapirishni afzal ko‘radi. Ayrimlar esa so‘zlarni buzib gapiradi va tilimizga befarq qaraydi. Bu juda achinarli holat. Axir, ona

tili — bizning faxrimiz va boyligimiz. O‘z tilini hurmat qilmagan inson o‘z millatini ham hurmat qilmaydi. Shuning uchun har birimiz ona tilimizni asrashimiz va uni qadrlashimiz kerak.

Tilni bilib turib, uni qadrlamaslik — ma’naviy qashshoqlikdir. O‘z ona tilidan uyalish — o‘zligini unutishdir. Ona tilini mensimagan xalq o‘z tarixini ham unutishi mumkin. Tilni buzib gapirish va unga befarq bo‘lish — madaniyatga befarqlikdir. O‘zga tillarni o‘rganib, ona tilini kamsitish — katta xatodir.

Abdulla Qodiriy aytganlaridek: «O‘zbek tili kambag‘al til emas, balki o‘zbek tilini kambag‘al deguvchilarning o‘zi kambag‘aldir». Tilimiz so‘z boyligi va ifoda imkoniyatlariga boy. Faqatgina uni asrashni va qadrlashni bilishimiz kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili bizning faxrimiz, milliy boyligimiz va o‘zligimiz ko‘zgusidir. Har birimiz ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni qadrlashimiz va to‘g‘ri so‘zlashga harakat qilishimiz kerak. Chunki til — millatning tarixi, madaniyati va ma’naviyatini aks ettiradi. Boshqa tillarni o‘rganish juda yaxshi, lekin ona tilimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Men ham o‘zbek tilining kelajagi uchun har birimiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim deb hisoblayman. Zero, ona tilimizni asrash nafaqat bugungi kunning, balki kelajak avlod oldidagi ham burchimizdir. Tilimizni qancha qadrlasak, uning kelajagi shuncha porloq bo‘ladi!Ona tilimizni sevaylik, asraylik va uning ravnaqi uchun doimo harakat qilaylik!

Til bor ekan, millat barhayo

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. «Davlat tili haqida»gi Qonun.
2. Alisher Navoiyning til haqidagi fikrlari.
3. O`zbek tili va adabiyoti darsliklari.